

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA

INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

«TARIX O'QITISH METODIKASI»

KAFEDRASI

5110600- “TARIX O'QTISH METODIKASI ” 4 - KURS “A” GURUHI

TALABASI NOSIROVA GULOYIM TOHIR QIZINING

7-SINF JAHON TARIXI DARSLARIDA “SALIB YURISHLARI”

MAVZUSINI O'RGANISHDA YANGI PEDAGOGIK

TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH” MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

**NDPI “Tarix o'qitish
metodikasi” kafedrası**

dots. Z. Xayitov

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING YIG`MA JILDI RO`YXATI:

1. Kafedra topshirig`i..... ____ *bet*
2. Ilmiy rahbar xulosasi (F.I.Sh, ilmiy darajasi, unvoni va ish joyi) ____ *bet*
3. Kafedraning himoyaga tavsiya etish qaroridan ko`chirma ____ *bet*
4. Taqrizlar (F.I.Sh, ilmiy darajasi, unvoni va ish joyi)..... ____ *bet*
5. DAK raisiga fakultet dekanining xati ____ *bet*
6. DAK qarori ____ *bet*
7. BMI rejasi, tushuntirish qismi, boblari, mundarija ____ *bet*

(imzo)

(talabanning familiyasi, ismi, sharifi)

(sana)

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

“TARIX O’QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

5110600-“TARIX O’QITISH METODIKASI” TA’LIM YO’NALISHI

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri _____ dots. R.M.Qarshiyev

“ _____ ” oktyabr 2015 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Nosirova Guloyim Tohirovnaning **“7-sinf jahon tarixi darslarida “Salib yurishlari” mavzusini o’rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish”** nomli bitiruv malakaviy ishi mavzusi kafedraning 2015-yil _____ oktyabrdagi 3-sonli yig’ilishida ma’qullangan.

1. Bitiruv malakaviy ishining bajarilish muddati _____

2. Bitiruv malakaviy ishining bajarilishiga doir ma’lumotlar:

3. _____

4.

5. Bitiruv malakaviy ishi bo`yicha maslahatchi(lar):

№	Bo`lim mavzusi	Maslahatchi o`qituvchi	Topshiriq berildi (sana)	Topshiriq bajarildi
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				
8.				
9.				
10.	<i>Ishning qoralamasi.</i>			

6. Bitiruv ishining rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
6.			
7.			
8.			
9.	<i>Ishning qoralamasi.</i>		
10.	<i>Ishning tayyor holga keltirilishi</i>		

Bitiruv malakaviy ishi rahbari _____

(familiyasi, ismi, sharifi)

Topshiriqni bajarishga oldim _____

(familiyasi, ismi, sharifi)

Topshiriq berilgan sana “ _____ ” _____ 2015 yil

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

“Tarix o'qitish metodikasi” kafedrasining

2015-yil ___ oktabrdagi 3-sonli yig'ilish qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedra a'zolari ro'yxat asosida (28 kishi).

Kun tartibi:

2. 5110600-“Tarix o’qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishi mavzusini tasdiqlash to’g’risida.

Eshitildi:

Kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri v.b. dots. R.M.Qarshiyev so`zga chiqib, kafedra a`zolarini talaba **Nosirova Guloyim Tohir qizining** bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan tanishtirdi.

Shuningdek, kafedra mudiri so`zini davom ettirib, bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi, bugungi kundagi ahamiyati va yangiligini hisobga olgan holda talaba **Nosirova Guloyim Tohir qizining “7-sinf jahon tarixi darslarida “Salib yurishlari” mavzusini o’rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish”** nomli bitiruv malakaviy ishi mavzusini tasdiqlash uchun tavsiya qildi. Yig`ilishda prof.M.Oltinov, t.f.d.G’.Temirov, dots. R.Rajabov, dots.S.G’iyosov, t.f.n.A.M.Aminova, katta o’qituvchilar: F.Shirinova, D.Murtazayev, U.Hayitovlar va o’qituvchilardan H.Rahmonov va boshqalar mavzuning mazmun-mohiyati haqida o`z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra yig`ilishi

QAROR QILADI:

1. 5110600 -“Tarix o’qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabasi **Nosirova Guloyim Tohir qizining “7-sinf jahon tarixi darslarida “Salib yurishlari” mavzusini o’rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish”** nomli bitiruv malakaviy ishi mavzusi tasdiqlansin.
2. Ilmiy rahbar etib **dots. Z.Xayitov** tayinlansin.

Kafedra mudiri v.b.:

dots. R.M.Qarshiyev

Kotiba:

Sh.Xoliqulova

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

**“Tarix o’qitish metodikasi” kafedrasining
2016-yil 24-maydagi 10-sonli yig`ilish qaroridan**

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedra a’zolari ro`yxat asosida (28 kishi).

Kun tartibi:

2. 5110600-“Tarix o’qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlarini himoyaga tavsiya etish to’g’risida.

Eshitildi:

Kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri dots. R.M.Qarshiyev so`zga chiqib, talaba **Nosirova Guloyim Tohir qizining** tayyorlagan bitiruv malakaviy ishi talabga muvofiq tayyorlanganligi, ilmiy rahbarlar, taqrizchilar o`qituvchilar tomonidan berilgan taqrizlar ijobiyligini, kerakli hujjatlar rasmiylashtirilganligini ta’kidlab o`tdi.

Bitiruv ishi mavzusi bo’yicha t.f.d., prof. M. Oltinov, G’.Temirov, katta o’qituvchilar: F.Polvonova, S.Hamroyeva, F.Shirinova, J.Mustafoevlar o`z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Shundan so`ng bitiruvchi talaba o`z mavzusi bo’yicha bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari hamda qilingan ishlardan olingan natijalar bo’yicha xulosa va tavsiyalarni gapirib berdi. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi yuzasidan berilgan savollarga javob berdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra yig`ilishi

QAROR QILADI:

1. Talaba Nosirova Guloyim Tohir qizining “7-sinf jahon tarixi darslarida “Salib yurishlari” mavzusini o’rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tugallangan deb hisoblansin.

2. Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

dots. R.M.Qarshiyev

Kotiba:

Sh. Xoliqulova

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI

«Tarix o'qitish metodikasi» kafedrasining
bitiruv malakaviy ishi haqidagi

X U L O S A S I

Navoiy davlat pedagogika instituti “Tarix o’qitish metodikasi” ta’lim yo’nalishi 4-kurs talabasi **Nosirova Guloyim Tohir qizining “7-sinf jahon tarixi darslarida “Salib yurishlari” mavzusini o’rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kafedra yig’ilishida muhokama qilingan va davlat attestatsiya komissiyasiga rasmiy himoya qilish uchun tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri:

dots. R.M.Qarshiyev

DAVLAT ATTESTATSIYA KOMISSIYASINING RAISIGA

Navoiy davlat pedagogika instituti “Tarix” fakulteti “Tarix o’qitish metodikasi” ta’lim yo’nalishi 4-kurs talabasi **Nosirova Guloyim Tohir qizining “7-sinf jahon tarixi darslarida “Salib yurishlari” mavzusini o’rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi himoya qilish uchun yuborildi.

Reyting qaydnomasidan ko’chirma, bitiruv malakaviy ishi rahbarining mulohazasi, kafedraning ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, taqrizlar ilova qilinadi.

Fakultet dekani:

t.f.n. X.Qurbonov

DAVLAT ATTESTATSIYA KOMISSIYASINING

QARORI

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING BAHOLASH MEZONI

Talaba Nosirova Guloyim Tohir qizining

Himoya vaqti _____

Mavzuning dolzarbligi	Ishning mustaqil bajarilish darajasi	Amaliy ahamiyati	Yangi adabiyotlardan foydalanish darajasi
<i>12 ball</i>	<i>32 ball</i>	<i>16 ball</i>	<i>10 ball</i>

Ishning rasmiylashtirishi <i>10 ball</i>	BMI ning himoyasi <i>20 ball</i>	Umumiy ball <i>100 ball</i>	<i>100 %</i>

“Bitiruv malakaviy ishi” _____ ballga baholandi.

DAK raisi: _____ dots. N.O'.Xolmatov

DAK a'zolari: _____ prof. M.Oltinov

_____ t.f.d. G'. Temirov

_____ dots. R. Qarshiyev

_____ t.f.n.X.R.Qurbonov

_____ kat. o'q.N.T.Sariyev

_____ o'q. S.Tolibova

_____ o'q. V.Ashurov

Navoiy shahri “ _____ ” _____ 2016 yil

MAVZU: 7-SINF JAHON TARIXI DARSLARIDA “SALIB YURISHLARI” MAVZUSINI O’RGANISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

REJA:

KIRISH

I BOB.XI – XIII ASRLARDA G`ARBIY YEVRUPADA IJTIMOYIY-IQTISODIY
HAYOT. XRISTIAN CHERKOVI -SALIB YURISHLARINING
TASHKILOTCHISI SIFATIDA

I.1. Salib yurishlarining sabablari, mazmuni va shart - sharoitlari

I.2.Salib yurishlari natijasida tuzilgan davlatlar va diniy ritsarlik ordenlari.

I.3.Salib yurishlarining oqibatlari, ahamiyati va o`rta asr Yevropasining tarixiy
taraqqiyotiga ta`siri.

II BOB. TARIX TA`LIMIDA “SALIB YURISHLARI” MAVZUSINI
O’RGANISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH

II.1.Ta`lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalligi.

II.2.7- sinf jahon tarixi darsligidagi“Salib yurishlari” mavzusini o`rganishda yangi
pedagogik texnologiyalar asosida bir soatlik dars ishlanmasi.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Kirish

Mustaqilligimizning birinchi yillaridanoq yangi jamiyat qurish, vatanimiz oldida turagan umumiy vazifalarimizni anglash, kelajak avlodni munosib tarbiyalash maqsadida ta'limni texnologiyalashtirish masalalariga alohida e'tabor berilib kelinmoqda. Muhtaram Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganlaridek “ Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota –ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, onggli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak”¹. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan, zamonaviy talablarga muvofiq o'qituvchining pedagogik mahoratini ko'tarish, kasbiy mahoratini namoyon etish, o'quv muassasalarini o'zaro aloqador yaxlid maqsadli tizim sifatida bog'lash bugunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek zamontalabi: yuksak bilimli, mustaqil fikrlaydigan, salohiyatli va amaliy kasb – hunarga ega yoshlarni tarbiyalash ekan - bunda o'qituvchilardan katta mahorat talab etiladi. “Ta'limning zamonaviy glaballashuvi va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvini innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko'rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas”². “Zamonaviy pedagogik texnologiya” deyilganda “Bola yetaklash texnologiyasi’ emas, balki ta'lim oluvchilar faolligini taminlaydigan, ta'lim jarayoni samaradorligini kafolatlaydigan texnologiya tushuniladi. Yangi pedagogik texnologiyaga ko'rata'lim jarayoni ko'proq ta'lim oluvchi shaxsiga qaratiladi, faollashtirilgan usullar va zamonaviy ta'lim

¹Karimov I. A. “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch”, T.: “Ma'naviyat”, 2008. 62 - bet.

²Mavlyanova R, Raxmankulova N. “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi”, T.: “Voris-Nashriyot”, 2013. 117-bet.

vositalaridan foydalangan holda o`quv maqsadiga erishiladi. ”Zamonaviy o`qituvchi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan, qirq besh daqiqalik dars davomida o`quvchilar diqqatini faollashtirib, turli interfaol usullardan foydalanib dars o`tilsa zerikarlilikdan chekinilib darsda samaradorlikka erishiladi. Bunda o`qituvchining kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo`lishi, hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o`zlashtirgan ijodkor pedagog bo`lish talab etiladi. Shuni inobatga olgan holda Bitiruv malakaviy ishim mavzusi bo`lgan: “7-sinf jahon tarixi darslarida Salib yurishlari mavzusini o`rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ”ni zamonaviy pedagogik texnologiya va interfaol metodlardan foydalanib tushuntirib berishga harakat qildik.

“Jahon miqiyosida globallashtirish va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o`zgarishlar jarayonida egallab turgan o`rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo`lishimiz shart”³ deb takidlaydilar Prezidentimiz I.A.Karimov. Darhaqiqat, jahonda yuz berayotgan tub o`zgarishlarni o`rganmasdan islohatlarni kengaytirish o`ta mushkul ishdir. Bu ishda esatarixsaboqlariga tayanish, davlatlarni taraqqiyotini o`rganish, qoqilmasdan olg`aborishimizga yordam beradi. Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish zarurati ham an`anaviy o`qitish tizimidagi kamchiliklarni tuzatish va ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko`payib borayotganligi va ulardan o`qitish jarayonida foydalanish, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta`lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Xulosa o`rnida aytish mumkinki, pedagogning tafakkurida ta`lim jarayonining bosh maqsadi, vazifalari sifatida yosh avlodni dunyoqarashini kengaytirish va o`quvchini faoliyat subyekti sifatida rivojlantirish g`oyasining ustunlik qilishi ta`lim samaradorligi oshishining va o`quvchilarda fanga bo`lgan qiziqishining oshishiga yordam beradi.

³ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: “O`zbekiston“, 2010. 6-bet

Ta'limjarayoniga axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalarni joriy etish shunday dolzarb muamolardan hisoblanadi.

Mavzuning maqsad va vazifalari: Bitiruv malakaviy ishida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib “Salib yurishlari “ mavzusi bo`yicha ma`lumotlardan foydalanishning metodik asoslarini yaratish tadqiqotimizning maqsadini belgilaydi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

- “Salib yurishlari” mavzusining tarixiy mazmun mohiyatini yoritish,
- Tarix fanini o`qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyani qo`llash samaradorligini asil mohiyatini tushuntirish
- Umumta`lim maktabining 7-sinf jahon tarixi fanini o`qitishda “salib yurishlari” mavzusini o`qitishning yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlari va usullarini o`rganish;
- Bir soatlik dars ishlanmasida interfaol usullardan foydalanib mavzu asosida dars jarayoni samaradorligini oshirish;

Mavzuning ilmiy yangiligi:Bitiruv malakaviy ishida aynan shu mavzuni tanlaganimiz bejiz emas.Binobarin, jahon tarixi fani nuqtai-nazaridan bu mavzuni metodik jihatidan o`rganilishi hali endi o`z yechimini topmoqda. Biz bitiruv malakaviy ishimizda salib yurishlarini dars jarayonida o`rganishda noan`anaviy usullar orqali, yangi adabiyotlar va manbalardan foydalanib o`rganishga harakat qildik.Taklif va mulohazalarimizni bildirdik.O`ylaymizki, bu izlanishlarimiz pedagogik amaliy faoliyatimizda yordam beradi, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuning tuzilishi.Bitiruv ishi kirish, asosiy qism, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. XI – XIII ASRLARDA G`ARBIY YEVROPADA IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOT. KRISTIAN CHERKOVI -SALIB YURISHLARINING TASHKILOTCHISI SIFATIDA

I.1.Salib yurishlarining sabablari, mazmuni va shart – sharoitlari

Salib yurishlari deganda Yevropa feodallarining XI asr oxiridan toXIII asr oxirigacha Yaqin Sharqda – Suriyada , Falastinda, Misrda, Bolqon yarim orolida, Kipr orolida va boshqa joylarda olib borgan harbiy ekspeditsiyalari ko`zda tutiladi. G`arbiy Yevropafeodallarining Sharq mamlakatlariga ommaviy yurishlariga sabab: birinchidan, XI asrning ikkinchi yarmida Yaqin SHarqda yuz bergan o`zgarishlar, ikkinchidan, qisman feodal G`arbiy Yevropaning o`zidagi umumiy iqtisodiy taraqqiyotnatijasi edi.Savdo sotiqning rivojlanishi bilan shaharlarning shiddatli rivojlanib ketishi oqibatida feodallarning ehtiyojlari ham ko`payib ketdi. Natijada ular kattaroq o`ljalarni qidira boshladilar. Bu vaqtda g`arbiy yevropada ritsarlarsoni ham birmuncha ko`paya bordi.SharqG`arbiy Yevropa feodallarini nimasi bilan o`ziga jalb qildi? Bu vaqtda yaqin Sharq mamlakatlari moddiy va ma`naviy madaniyatining rivojlanishdarajasi bo`yicha g`arbiy Yevropadan ilgarilab ketgan edi. Sharqdan va Vizantiyadan yevropaliklar qimmatbahotovarlar va boyliklar olib kelganlar.Sharq mamlakatida safarda bo`lganlar bu yangi shaharlarning afsonaviy boyliklari haqida so`zlashardilar. Yevropaliklar nazarida sharq “yerdagi jannat” edi. Bu yerning boyliklari oxir oqibat qashshoqlashib borayotganritsar va feodallarning orzusiga aylandi. Ammo salib yurishlarida feodallardan tashqari, jamiyatning boshqa sinflari, jumladan, dehqonlar ham qatnashdilar . Bu hol salib yurishlariga yalpi, ommaviy tus beradi. Yaqin sharqda XI asr oxirlarida vaziyatning murakkablashib borishi u yerdagi boyliklarga ega bo`lish haqidagi rejalarning amalga oshirilishi uchun qulay sharoit yaratdi.Saljuqiyturklar1055- yilda Bog`dodni va 1071- yilda Mansikert yaqinidagi jangda vizantiya qo`shinlarini mag`lubiyatga uchratib deyarli butun Kichik Osiyoni egallab olishdi. Shuningdek asosiy xristianlik ilohlari joylashganSuriya va Iyerusalim bilan birgalikda Falastinni ham egalladi. Bu

esa bir qancha vaqt feodallar bu jannatmakon yerlarga tashrif buyurishini qiyinlashtirdi va dushmanlarga bu yerlarni ozod qilish uchun targ`ibot qilishga bahona bo`ldi. Vizantiya hech qachon XI asr oxiridagi kabi achinarli holatga tushmagan edi. Saljuqiy turklar deyarli oxirgi bo`g`ozlargacha egalladilar va Konstantinopoldan 1000 kmcha narida bo`lgan Nikea shahrini o`zlarining poytaxtiga aylantirdilar. Janubiy Italiyalik normandlar esa Bolqongacha suzib bordilar. Makedoniya va Fessaliyani vayronaga aylantirdilar. Imperator Aleksey I ularni u yerlardan chiqarib tashlashga muyassar bo`lgan bo`lsada ammo shimoldan Konstantinopolga suqulib kira boshlashgan edi. Turk amiri Chaxa ular bilan Konstantinopolga hujum qilish bo`yicha kelishuv tuzdi. Bu esa Vizantiya imperatori Aleksey I ni Papa va G`arbiy Yevropalik qirollardan yordam so`rashga majbur qildi. Bu murojat salib yurishlariga undovchi feodal va ritsarlarning rejalarini ro`yobga chiqarish uchun juda qulay sabab edi. Salib harakatlari endilikda faqatgina feodallardan emas balki keng ko`lamli aholini ham o`z ichiga oldi. Unda butun boshli dehqonlar, shuningdek, Shimoliy Italiya shaharlari aholisi ham ishtirok etadi. Dehqonlarning ma`naviy yo`lboshchisi bu -Papa boshchiligidagi katolik cherkovi edi. Haqiqatdan ham bu feodal jamiyatdagi mazkur ijtimoiy guruhlarining bu harakatda ishtirok etishidan sabab maqsadlari har xil bo`lsada ularni bitta shior birlashtirgan. Bu ham bo`lsa xristianlikni ozod qilish edi. Boy feodal ritsarlar uchun ularning bu yurishga qatnashishi uchun yagona sabab yerlarni egallab olish va boshliqlarga ega bo`lish edi. Boy senyorlar sharqda mustaqil knyazliklarni tashkil qilishga harakat qilar edi. Bu yurishda ishtirok etayotgan g`arb davlatlari monarxlari esa koloniya mulklariga ega bo`lishmoqchi edi. Ko`p sonli ritsarlar bosib olingan mamlakatlarda yer lenlarini olishga umid qilishar edi. Ruhoniylar esa cherkovga kirim bo`lishini va boy okruglarni kutishardi. Papalik yagona boshqaruvchi rolga kirar ekan faqatgina katolik cherkovi ustida emas balki butun g`arb davlatlari ustida raxbarlik qilish maqsadini mustahkamlash uchun harakat qilar edi. Papa Grigoriy VII yerlarni bo`lib olish uchun yurish qilishni rejalashtirdi va shu asosida pravaslav va katolizm bilan birlashishni niyat qilgan edi. Papalik shundan musulmon mamlakatlarida ham katolik missiyasini muvafaqiyatli chiqishiga umid

qilardi. Sharqdagi boy cherkov buyumlari hisobiga papa g`aznasini to`ldirish esa ikkinchi o`rinli masala edi.

O`z yurtida feodallik zulmidan jabr ko`rgan dehqonlar ommasi daryo ortida bo`lgan uzoq mamlakatlarga borib erkinlikka erishish eksplutatsiyadan qutulish va balki boyib ketish umidida edi. Bu umid haqiqatga aylanib borib oxir oqibatda kambag`llar orasida salib yurishlari boshlanishiga sabab bo`ldi. Bu urush o`zining avvalgi diniy sababi va ahamiyatini yo`qotib oddiy talon taroj ekspeditsiyasiga aylandi. Salib yurishlariga sharq bilan savdoda o`z o`rnini mustahkamlashga harakat qilayotgan, shuningdek Sharqiy O`rtayer dengizi bozorlarini egallab olish va o`zlarining kolonoyalarini yaratish uchun harakat qilgan yirik shimoliy Italiya shahar respublikalari bo`lgan Vizantiya, Genuya va boshqalar faol ishtirok etdilar.

Birinchi salib yurishi: 1095 - yilda Klermondagi cherkov yig`ilishida papa Urban II barcha qirollar, sennorlar, ritsarlar va oddiy xalqni qo`liga qurol olishga va yurish boshlashga chaqirdi. Bu yurish ishtirokchilariga o`zlarining ko`ngillarini ko`tarishni va shu bilan birga quyidagi so`zlarni aytardi: “ Kimki bu yerda jabr ko`rgan va qashshoq bo`lsa, u yoqda baxtli va boy bo`ladi” deb ishontirganlar. Ular ishonib orqasidan jangga ketadilar. Urban II yurish qilishga va`da beradi va buni belgisi sifatida kiyimiga xoch rasmini tushiradilar (Shuning uchun bu yurish salb yurishi ishtirokchilari esa salbchilar deb nomlangan). Salib yurishlari uchun aholi ommasini jalb qilish uchun cherkov salibchilarga bir qancha imkoniyatlar beradi. Jumladan, qarzlarini to`lashdan va narsalarini qo`riqlashdan ozod qildi. Salibchilar cherkovning maxsus homiyliги ostida bo`ldi. Yig`inda qisman fransuz, qisman boshqa mamlakatlardan kelgan minglab ritsarlar hozir bo`ldilar. Feodallarning ko`pdan – ko`p yig`inlarini o`tkazish vaqtining o`zi shu narsani yaqqol ko`rsatdiki, papa bosh ko`tarib chiqmasdan ancha burun ritsarlar orasida keng targ`ibot olib borilgan va ularning bir qismini Falastinga salib yurishi o`tkazish rejalaridan manfaatdor qilishga ulgurilgan edi. Papning bu chiqishi ancha ilgari tayyorgarlik ko`rila boshlagan ishni tashkiliy va ideologiya jihatdan rasmiylashtirishdan iborat bo`ldi xolos.

1096- yilning bahorida shimoliy va sharqiy Fransiyaning, qisman g'arbiy Germaniyaning dehqonlar ommasi salib yurishi uchun yo'lga tushdi. Dehqonlarga monax Pyotr Ammenskiy va kichik mulkdor ritsar Valter Golyak boshchilik qildi. Dehqonlar zudlik bilan o'zlarining barcha mol– mulklarini sotishib, yurish uchun zarur buyumlarni qimmat narxlarda bo'lsada sotib ola boshladilar. Ko'psonli oilalar o'zlarining bolalari bilan jo'nab ketadilar. Dehqonlar olomoni yomon uyushtirilgan, naridan beri qurollantirilgan, oziq – ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlanib turilmas edi. Yo'l davomida ular turli bosqinchilik yurishlarini uyushtiradilar, bir qancha aholiga hujum qilib ularning shaharlarini o't ichida qoldirdilar. Konstinopolga ushbu salibchilarning yarmidan kamigina (40 mingtachasi) yetib bordi. Qolganlari to'qnashuvlarda, shuningdek, kasallik va ochlikdan o'lib ketishdi. Salibchilar Konstantinopolga kirib kelgach, imperator ularni tartibsizlik ko'rsatishi va zo'rvonlik qilishidan xavfsirab, ularni Kichik Osiyo sohiliga jo'natib yuborishga shoshildi.

Vizantiya imperatori Aleksey I maqsadsiz tashkillashtirilganbu salib yurishini ko'rib ularni ritsarlar kelguniga qadar ushlab turishga harakat qildi. Ammo ularni qochib ketishini oldini olish uchun ularni bo'g'oz orqali harakatlantirishga buyruq beradi. Turklar bilan bo'lgan birinchi to'qnashuvdayoq salibchilar deyarli yo'q qilindi. Qolganlari jami 1000 ga yaqin odam Pyotr Pustinning bilan Bosforga qarab qochdi va Konstantinopolga qaytishga harakat qildi. “1096–yil kuzida Konstantinopolga ritsarlar kela boshladi. Ular juda yaxshi qurollangandi. Bu qurollarni yerlarini sotib olgan edilar. Bu yurishga Quyi Lotaringiya gersogi Gotfrid Bulonskiy boshchilik qilib, o'zi bilan birga Sharqqa ikkita ukasi – Bolduin bilan Evstafiyni olib ketdi. Shimoliy fransuz feodallariga Normandiya grafi, hamda Flandriya grafi Robert boshchilik qildilar, janubiy fransuz feodallari o'zlariga Tuluziya grafi Raymundni yo'l boshchi qilib oldilar.”⁴Ular oldin salibchi dehqonlar yurgan,

⁴Карпов С.П., Удальцовой З.В. “История средних веков”. В 2-х томах. Том 1, М.:Высш. шк., 1990. 117

Bolqonda Dunay yaqinidagi haj safari yo`lidan yurishadi. So`ng ritsarlar norman gersogi Robert va boshqa yirik fransuz senyorlari boshqarib kelgan shimoliy va o`rta fransiya tomon harakatlanishadi. Janubiy Italiyalik normandlar Vizantiyaning bevosita dushmani bo`lgan gersog Bolmun Tarentskiy boshchiligida Ipr va Bolqon orqali yuradilar. Janubiy Fransiyalik ritsarlar Raymund Tuluzskiy boshchiligida quruqlik orqali Konstantinopol tomon harakatlanadilar va Konstantinopolga bordilar. Ritsarlar to`dalarining Bolqon yarim oroli bo`yicha harakat qilishiva qashshoqlarning ham shu yo`nalishda yurishi cheksiz talon – tarojlik keltirib chiqardi. Vizantiya shahri bo`lgan Pelagoniya bosib olindi va yoqib yuborildi. Imperator salibchilarning harakat yo`lini qo`riqlash va ehtiyot choralarini ko`rishga majbur qildi. Alohida guruhlarining Konstantinopolga yetib kelishi bilan ular tezda qaytadan Bosfor orqali harakatlandi.


Bahor oxiriga borib 1097-yil ritsarlar Kichik Osiyo tomon harakatlanib oxir oqibat Nikeya shahrini ozod qilishdi. Uning uncha katta bo`lmagan otryadi Vizantiyaliklarga taslim bo`ldi. Vizantiya salibchilari boshqa hech narsa ololmadilar.

Turklarning suvsiz mamlakatini vayron qilishga qaratilgan jazirama issig`da og`ir va zerikarli yurishlar boshlandi. Turklarning yengil otliq askarlari doimo salibchilarga yon tomondan va orqadan hujum qilardi. 1098-yil boshida shimoliy fransuz ritsarlari Mesopatamiya shimolidagi Edessa shahrini qamal qiladi. Bu yerda birinchi salibchilar davlati – Edessaga Bolduin knyaz bo`lib oldi. Salibchilarning Edessani bosib olishi strategiya jihatidan muhim edi, chunki Edessa Suriya bilan Flastinni shimol tomondan turklar hujumidan qo`riqlab turardi. 1098-yil yozida Bolduin boshchiligida yaxshi qurollangan salibchilar “Sharq poytaxti” Antioxiya shahrini qamal qilishdilar va bosib oldilar. Salibchilar bosib olingan shaharlarda musulmon aholisi ustidan qirg`in uyushtirdilar. Boy shaharlarni talashdi, natijada ziddiyatlar kelib chiqqa boshladi. Vizantiya bu yerlarga o`zi qonuniy da`vogor bo`lib chiqdi. Oxir oqibat Boemund Tarentskiy Antioxiyaning knyazi bo`ldi. Bu esa oxiri Vizantiya

bilan salibchilar o`rtasida kelishmovchiliklarga olib keldi. Vizantiya qo`shinlari turklarning kuchsizlanib qolganligidan va salibchilar o`rtasidagi ziddiyatlardan foydalanib Kichik Osiyoga yaqin viloyatlarni bosib oldi.

Bosib olingan yerlarda mayda ishlari bilan shug`ullanib, o`zlarining asosiy maqsadi – jannatmakon yerlarni bosib olishni unutib qo`yishdi. Bu esa salibchilar ommasini ko`tardi va ularning rahbarlari 1099-yil Falastindagi Iyerusalimga yurish boshlashdilar. Uzoq muddatli hujumlar va to`xtovsiz urushlar natijasidashahar egallandi. Bosqinchilar shafqatsiz holda musulmonlarniham, xristianlarni ham qiynab, erkaklarni, gunohsiz ayollar va bolalarni o`ldirdilar. Tez orada salibchilar deyarli barcha sharqiy qirg`oqlardagi; O`rtayer dengizi ford shaharlari – Akra, Tripoli, Tir kabilarni bosib oldilar. Salibchilarning shimoldan janubga tomon tor mintaqa bo`lib cho`zilib ketgan mulklarining uzunligi 1200 kmga yetar edi. Nihoyat birinchi salib yurishlari yakuniga yetdi. Barcha tirik qolgan ishtirokchilar taqdirlandilar. To`dalar rahbarlari katta yerlar knyazlariga aylandilar. Baron va ritsarlar katta lenlarning egalariga aylandilar, ruhoniylar esa boy cherkov prebendigaaylandilar. Dehqonlargayaxshi sharoitga ega bo`lgan yerlar ajratildi, ba`zilariga esa ritsarlar yetishmaganligi uchun ritsarlik unvonlari berildi. Natijada dehqonlarning bir qismi ritsarlik xizmatiga o`tishdi.

Salibchilarning sharqqa yurishlari.



1096 – 1099 – birinchi salib yurishlari. Suriya va Falastin yerlarini egallab olish. Mahalliy aholi uchun feodallar zulmining kuchayishi.

Sharq xalqlarining salibchilarga qarshi kurashi

1204 – to`rtinchi salib yurishi. Xristianlar shahri bo`lgan Konstantinopol talon - taroj qilinishi.

I.2. Salib yurishlari natijasida tuzilgan davlatlar va diniy ritsarlik ordenlari.

Sharqiy O`rtayer dengizi qirg`oqlarining katta qismini bosib olinishi natijasida to`rtta salibchilar davlati tashkil topdi: Janubiy Suriya va Falastinda Quddus qirolligi, Suriya qirg`oqlarida Tripoli grafligi, Shimoliy Suriyada Antioxiya qirolligi va Yuqori Mesopotamiyada Edessa grafligi. Salibchilar davlatlarida Fransiyadagi kabi davlatni boshqarish tartibi yuritiladi. Qudduz qirolligida maxsus feodal odatlar “Quddus assezi” deb nom olgan yozma qoidalarga aylanib, bu Quddus qirolligining konstitutsiyasi hisoblanadi. Feodallaro`rtasidagi munosabatlar bir-biriga qaramlik asosida qurilar edi. Kichik feodallarning o`z senor – baronlariga va baron ham knyazlarning qirolga nisbatan bo`lgan munosabatlarini yo`lga solib turadigan bo`ldi. Shuningdek, assezlarda ritsarning bir yilda necha kun urushda xizmat qilib berishi belgilangan edi. Qolgan uchta davlat rahbarlari amalda to`liq mustaqil bo`lsalarda qirolga qaram edilar. Bu davlatlar ham o`z navbatida baronliklarga, baronliklar esa ritsarlik lenlariga bo`linadi. Baronlar va ritsarlar o`z mol mulklari hisobidan harbiy harakatlarni olib borishlari majburiy edi. Quddus qirolligida oliy hokimiyat yuqori palatadan bo`lgan yirik feodallarga tegishli edi. Ularning roziligisiz qirol qonunlar chiqarolmasdi, urush e`lon qilolmasdi va tinchlik sulhi tuzolmasdi. Salibchilar mahalliy aholini juda qattiq ishlatishardi. Dehqonlar toshloq yerlar uchun hosilning 1/3 qismidan tortib, teng yarmigacha soliq to`lardi. Qashshoq aholi bir necha marotaba bosqinchilarga nisbatan bosh ko`tarib chiqishdi. Salibchilar katta qiyinchilik bilan musulmon aholisi ustidan hokimiyatni ushlab qolishga erishdi. Salibchilarning shimoldan janubga qadar bir necha ming kilometrga cho`zilgan, o`zlari egalik qilib turgan yerlarni mudofaa qilishlari uchun katta kuch talab etilar edi. Ular doimiy ravishda hujumkor yurishlar qilish va mudofaani ushlab turish uchun 1119- yilda tampleyerlar ma`naviy ritsarlik ordeni yoki ibodatxona ahllari degan fransuz ordeni tashkil etildi, chunki orden binosi, rivoyatlarga ko`ra, qachonlardir podsho Solomonning qadimiy yahudiylar ibodatxonasi joylashgan teritoriyada bo`lgan. Tez orada gospitalerlar ordeni va keyinchalik 1190- yilda esa nemis ritsarlarini birlashtirgan Tevton ordeni yaratildi. Bu orden boshqa ordenlardan ancha keyinroq barpo etilib, Falastinda

uncha uzoq turmadi. “ XIII asr boshida Tevton ordeni Yevropaga ko`chib o`tib, Quyi Visla daryosi qirg`og`ini o`ziga makon qilib tanlab oldi, polyak feodallari mahalliy “majusiylar” ga - prusslarga qarshi kurashish uchun Tevton ordenini bu yerga taklif etgan edilar. Tevton ordeni Prussiyani istilo etib va shuning oqibatida “Tevton ” ordeni degan nom o`rniga “Pruss ” ordeni degan nom oldi. Bu ordenlarning a`zolari ritsarlardan iborat bo`lib alohida odatlar asosida yashardilar.”Tampleyerlar qizil xoch tasviri tushirilgan oq kiyim kiyishardi. Gospitalerlar esa oq xoch aksi tushirilganqizil kiyim kiyishardi. Tevton ritsarlarida esa qora xoch aksi tushirilgan oq kiyim bo`lgan.Ritsarlar ruhoniylk niqobi ostida yurishardi. Orden a`zolari doimo “nohaqlar” bilan urushishga tayyor turishardi. Ritsarlar qo`l ostida xizmatkorlar ham bo`lib, ular ordenning eng quyi o`rnida turishardi. Ordenningboshlig`i“Buyuk magistr”deb atalib, u bevosita papaga bo`ysunardi. Ordenlar katta imtiyozlardan foydalanishardi va keyinchalik katta yer va ko`chmas mulk egalari bo`lgan korparatsiyalarga aylanib ketishdi. Tampleyerlar masalan katta aperiatsiyalar bilan shug`ullanishardi va katta pul vositalariga ega edilar.Ordenlar sharqda o`z boshqaruvlarini yo`qotib borishlari bilan o`z faoliyatlarini Yevropaga ko`chirishdi. Tampleyerlar Fransiya bo`ylab yirik aperiatsiyalarni amalga oshirishardi.

Ikkinchi va uchinchi salib yurishlari:G`azabga to`lgan musulmon knyazliklari o`zlarining kuchlarini yig`a boshladilar va hujumga o`tishdi. 1144- yilda amir Mosula salibchilardan Edessani tortib oldi. Antioxiyaga tahdid sola boshladi. Papa yangi salib yurishlariga chaqirdi. Katolik cherkovining mashhur arbobi mistik Bernard Klervoskiy fransuz qiroli Lyudovik VII va Germaniya qiroli Konrad III ni 1147-yilda ikkinchi salib yurishlariga jo`nab ketishiga ko`ndirdi. Faqatgina bu safarda salibchilar hech qanday muvaffaqiyatga erisha olmadilar. Nemislar Kichik Osiyoda turk saljuqlari tomonidan yakson qilindi. Nemislarning qolgan qo`shinlariga qo`shilgan fransuz ritsarlari esa Damashqni qamal qilishga harakat qilishdi. Ammo ko`p yo`qotishlar tufayli Yevropaga qaytib ketishdi.

XII asrning 2-yarmida sharqdagi vaziyat keskin o'zgarib ketdi. Misrda Suriyani va Mesopatamiyaning asosiy qismini o'ziga bo'ysundirgan kuchli musulmon davlati tashkil topdi. Bu davlatning rahbari sulton Salohiddin (1174-1193-y), (uni Yevropada Saladin deb atashgan). U uzoqni ko'ruvchi siyosatchi va qobiliyatli boshqaruvchi edi. U Tiveriad ko'li yaqinida salibchilarga katta zarar keltirdi va 1187-yilda Quddusni bosib oldi. Bu esa uchinchi (1189-1192) salib yurishlarining tashkillashtirilishi uchun sabab bo'ldi. Bunda yevropaning uchta davlati : fransuz, ingliz va german davlatlari qatnashdi. Bu salibchilarning tarkibi bo'yicha ishtirokchilar barcha salib toifalaridan tashkil topgani bilan farqlanadi. Bu yurishda nemislarga ritsari Fridrix I Barbarossa boshchilik qildi, fransuzlarga Flipp II Avgust va inglizlarga Richard I boshchiligida yurish bo'ladi. Fridrix I Vizantiyaning dushmani bo'lib, Vizantiya esa Saladin bilan ittifoq tuzadi. Nemislar boshidanoq omadsizlikka uchradi. Fridrix I Barbarossa Suriyada daryodan kechib o'tish paytida suvga g'arq bo'ladi. Fransuz va Angliya qirollari dushmanchilik qilishni to'xtatmadi. Fransiya Angliya bilan urush holatida bo'lib salib yurishlari tufayli papa vositachiligi bilan vaqtinchalik kelishuvga ega edi. Richard I O'rtayer dengizida o'z o'rnini mustahkamlashga urinib Sitsiliyani bosib olishga harakat qildi. Ammo bunga fransuz va german qirollari xalaqit berishdi. Shunda Richard I Kipr orollarini bosib oldi. Keyinchalik esa Akrani qamal qila boshladi. Inglizlar va fransuzlar o'rtasidagi dushmanchilik yangidan alanga oldi va Filipp II o'zining ittifoqdoshi bo'lgan inglizlar bilan yangi urushga tayyorgarlik ko'rish uchun vataniga qaytib ketdi. Richard I Akrani egallab olgandan so'ng Quddusni qaytib olishga harakat qila boshladi vafaqatgina Saladinni roziligibilan 3 yil davomida Quddusga faqatgina savdogarlar va tijoratchilarning borishiga erishdi. Endi Quddus qirolligining poytaxti Akrashahri bo'ldi. Richard I Angliyaga qaytishda imperator Genrix IV ni asiriga aylanadi va bir yarim yildan so'ng katta boj evaziga ozodlikka chiqadi. Uchinchi salib yurishining natijasi shu bo'ldiki, Kipr orolining Garbiy Yevropaliklar tomonidan istilo etilishi va keyinchalik Quddus qiroli o'z saroy ahllari bilan birga bu yerga ko'chib keldi. Salibchilarning barcha yer mulklari

ichida Kipr qirolligi eng mustahkam qirollik bo`lib chiqdi. Bu qirollik 250 - yil yashadi.

To`rtinchi salib yurishlari.Lotin imperiyasi.(1202-1204) . Bu yurish o`ziga xos bo`lib, jannatmakon yerlarni bosib olinishi bilan ajralib turadi. Ushbu yurish ilhomchisi papa Innokentey IIIbo`lib u sharq cherkovlarini Rim prestollariga bo`ysundirish va papa hokimiyatini o`rnatishga harakat qildi.To`rtinchi salib yurishi o`ziga xos yurish bo`lib, u boshqa salib yurishlariga nomi jihatdan aloqador bo`lsada, lekin u butun salibchilik harakatini bosqinchilik mohiyatini ro`yi – rost ochib bergan yurish bo`ldi. Bu yurish qatnashchilari hatto Falastingacha ham yetib borolmadilar. Salibchilar bu safar turklarga yoki boshqa musulmonlarga qarshi yurish qilmay, balki xristianlar Vizantiyasiga yurish qildilar. To`rtinchi yurish tarixida ayniqsa venetsiyaliklar katta rol o`ynadilar, ular yurish yo`nalishini o`zgartirib yubordilar. Dastlabbu salib yurishlariIyerusalimni egallab turgan Misrga qarshi rejalashtirilgan edi.Salibchilar Nil deltasiga yo`lboshchilik qilishni iltimos qilib, Venetsiyaga murojaat qilishdi. Venetsiyalik bo`lgan Enriki Dandola bu yordam uchun juda katta summa bo`lgan 85 ming marka kumush so`radi, salibchilarda esa buncha pul yo`q edi. U salibchilardan buning o`rniga kombitsatsiya sifatida Venetsiya uchun Dalmatin shahri Zadarni olib berishini talab qildi.Ammo oxir-oqibatda Venetsiyaliklar salibchilarni Nil deltasiga yo`lboshchilik qilish to`g`risidagi vadasini bajarishmadi.Misr bilan foydali savdo – sotiq olib borgan, lekin Vizantiyani kuchsizlantirishdan manfaatdor bo`lgan Venesiya, salibchilarni dastlabki niyatidan qaytarib, o`zining savdo raqibi Konstantinopol ustiga yurish qilishga yo`lladi. 1204 – yilda Konstantinopol bosib olindi va Bolqon yarim orolining janubiy qismida Lotin imperiyasi degan yangi davlat barpo etdilar. Quddus qirolligi kabi bu davlat ham tipik feodal davlat edi. Shimoliy fransuz feodali , Flandriya grafi Balduin imperiyaga boshliq qilib qo`yildi. Imperiya tarkibida bir nechta yirik vasallik mulklari: Fessalonika qirolligi, Afina gersogligi, Axeya knyazligi va boshqalar bor edi. Vizantiyadan ko`p miqdorda yer – mulklarni: Konstantinopolning bir qismini, Gallipol shahrining bir qismini, Egey dengizidagi

ba`zi orollarni, Ioniya orollarini, Krit orolini, Peloponesning janubiy – g`arbiy qismini Venesiya oldi. Kichik Osiyo shimolidagi Trapezund mustaqil bo`lib qolaverdi. Vizantiyaning istilo etilmagan uchta hududidagi eng yirik Nikeya imperiyasining imperatori Mixail VIII Palelog lotinlar zulmi ostida yashagan greklarning xayrixohligiga tayanib, 1261 – yilda Konstantinopolni bosib oldi va u yerdan yevropalik feodallarni haydab yubordi. Vizantiya imperiyasi ana shu tariqa qayta tiklandi. Lekin bu davlat juda kuchsiz edi.

I.3. Salib yurishlarining oqibatlari, ahamiyati va o`rta asr Yevropasining tarixiy taraqqiyotiga ta`siri.

Hammasi bo`libsakkiz marta salib yurishlari bo`lib o`tdi. Beshinchi yurish (1217-1221) ning shunisi qiziqki, uning tashkilotchilari dastlab Falastinda urush harakatlarini olib boradilar, keyin ular bu urush harakatlarini Misrga ko`chirdilar va muvaffaqiyatsizlikka uchradilar. Falastinda urush harakatlari olib borilgan dastlabki bosqichda Vengriya qiroli Andrey II katta rol o`ynadi.

Oltinchi yurish (1228 – 1229 yillar) Fridrix I Barbarossaning nevarasi – Fridrix II Shtaufening sharqqa qilgan yurishi edi. Ammo bu safar ham biror bir arzigulik keng urush harakatlari olib borilgani yo`q. Fridrix II kuch ishlatib emas, balki ko`proq diplomatik yo`l bilan Quddusni va boshqa ba`zi shaharlarni qaytarib olishga muvaffaq bo`ldi. Ammo tez orada (1244 – yilda) turklar Quddusni yana qaytarib oldilar va xristianlar uni endi batamom qo`ldan chiqardilar. Yettinchi va sakkizinchi salib yurishlari fransuz qiroli Lyudovik IX tomonidan uyushtirilib, ular fransuzlarning Shimoliy Afrikadagi ta`sirini mustahkamlamoqchi bo`lgan edilar. Lyudovik IX ham yettinchi yurishda (1248- 1254- yillar) Misrga hujum qildi, lekin bu hujum yana muvaffaqiyatsiz chiqdi. Uning o`zi asir tushib qoldi va bu asirlikdan qutulish uchun katta tovon to`lashi lozim edi. Fransuzlarning bundan keyingi (1250 - yildan boshlab) qilgan urush harakatlari ham hech qanaqa natija bermadi.

Sakkizinchi yurishda (1269 – 1270- yillar) Lyudovik Tunis shahrini qamal qilish uchun zo`r berib kuch to`pladi, bundan muddao Afrikada urush harakatlarini yanada davom ettirish uchun tayanch bazasiga ega bo`lish edi. Ammo Tunisni qamal qilish paytida fransuzlar lagerida o`lat kasali boshlanib, ko`plar qatorida qirolning o`zi ham halok bo`ldi. Bu yurish yevropaliklarning so`nggi yirik harbiy ekspeditsiyasi bo`lib, u salibchilik harakati bayrog`i ostida Yaqin Sharqdagi musulmonlar joylashgan hududlarni bosib olishni maqsad qilib qo`ygan edilar. Shundan keyin sharqqa qilinadigan hujumlar to`xtadi. Salibchilarning yer – mulklari birin – ketin qisqarib, turklar qo`liga o`ta boshladi. 1268 – yilda turklar Antioxiyani, 1289 – yilda Tripolini, 1291 – yilda Akrani oldi. XV asrning ikkinchi yarmida Kipr oroli venesiyaliklar qo`liga o`tdi.

Salib yurishlarining ahamiyati – harbiy ekspeditsiyalar sifatidagi salib yurishlari batamom muvafaqiyatsizlik bilan tugadi. Yevropa feodallari sharqda mustahkam davlat barpo eta olmadilar. Istilo qilingan deyarli barcha hududlarni qoldirib ketishga to`g`ri keldi. Ritsarlar sharqni tashlab chiqib ketishga majbur bo`ldilar. Bir qancha sabablar shunga majbur etdiki, Yevropa feodallarida yangi salib yurishlari uyushtirish ishtiyoqi qolmadi. XIII asr oxiriga kelib, Yevropada siyosiy vaziyat tamomila o`zgardi. Vujudga kelgan milliy davlatlar bir - birovlari bilan shiddatli va uzoq davom etgan urushlar boshlab yubordilar. Ritsarlar o`z harbiy hunarlarini Yevropaning o`zida ham qo`lladilar. Ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish kuchlarining o`sishi va tovar pul munosabatlarining yanada rivojlanishi bilan ritsarlar o`z dehqonlarini ishlatib katta – katta daromadlar oladigan bo`ldilar, ritsarlarning bir qismi qishloq xo`jaligi bilan shug`ullana boshladi. Yaqin Sharq, aksincha , bu vaqtda salibchilar tomonidan talangan va xarob etilgan edi. XIII asrda mo`g`ullarning O`rta Osiyoga bostirib kirishi Yaqin Sharqning ahvolini yana battarroq yomonlashtirib, Hindiston va Xitoy bilan savdo – sotiq aloqalarini qiyinlashtirib qo`ydi. Shunday qilib, G`arbiy Yevropa feodallari nazarida Sharq ham o`zining avvalgi jalb qiluvchi kuchini yo`qotib quygan edi. Salib yurishlari bu feodallarning havasini keltirmaydigan bo`ldi.

Harbiy muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, har qalay, salib yurishlarining G`arbiy Yevropa taraqqiyoti uchun ahamiyati g`oyat katta bo`ldi. Avvalo, salib yurishlari O`rta dengiz bo`yi mamlakatlari yevropa savdo – sotig`ining rivojlanishiga yordam berdi. Bu salib yurishlari natijasida arab va vizantiyalik savdogarlarning Yaqin Sharqdagi savdo monopoliyasi qattiq zarbaga uchradi va bu yerlarda Italiya, janubiy Fransiya va sharqiy Ispan shaharlari gegemoniyasi o`rnatilgan. Endilikda bu shaharlar Sharq bilan Yevropaning qolgan qismi o`rtasida o`rtasida vositachilik rolini o`ynaydigan bo`ldi. Salib yurishlari vaqtida G`arbiy Yevropaning Sharq bilan savdo – sotiq aloqalari muntazam bir yo`lga tushgan edi. Salib yurishlarining boshlarida Sharqdan keltiriladigan tovarlar miqdori shu yurishlar oxiriga kelib o`n marta ko`paydi. Venetsiya bilan Genuya O`rta dengizning sharqiy yarmigacha, to Shimoliy Qora dengiz sohiligacha kirib bordilar va u yerlarda ko`pdan – ko`p savdo faktoriyalari barpo qildilar. So`ngra, salib yurishlari yevropaliklarning Sharqning sanoat va qishloq xo`jalik texnikasi bilan tanishishlariga imkon berdilar. Yevropaliklar shu davr ichida Sharq to`qimachilik va metallurgiya ishlab chiqarishning, bo`yoqchilik ishining, atir – upa va dorivorlar tayyorlash ishining ko`pgina usullarini o`rgandilar, shuningdek, grechixa, sholi va boshqa qishloq xo`jalik ekinlarini Yevropaga olib ketdilar. Sharq maishiy masalada yevropaliklarga katta ta`sir ko`rsatgan. Ammo salib yurishlarining G`arbiy Yevropaga ko`rsatgan ta`siri haqida gapirilar ekan, arablar Sharqning madaniyati salib yurishlaridan tashqari, boshqacha yo`llar bilan, jumladan, Ispaniya orqali Yevropaga o`tib kirganligini unutmaslik kerak.

Salib yurishlarining natijalari

Salib yurishlarining omadsizlikka uchrash sabablari :

1. Katta yo`qotishlar va yurishlardagi qiyinchiliklar
2. Yevropada xo`jalikning rivojlanishi feodallar daromadining o`shishi, dehqonlar hayotining yengillashishi.

Yevropa mamlakatlari uchun salib yurishlarining oqibatlari.

O`rtayer dengizida savdoning rivojlanishi.

Yangi madaniyat va hunarmandchilik bilan tanishuv

Feodallarning boylik orttirishga intilishi, dehqonlar mehnatini o`shishi.

II.BOB. TARIX TA'LIMIDA "SALIB URISHLARI"MAVZUSINI O'RGANISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

II.1. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari

“Toki hayot davom etar ekan, tarbiya ham zamon o`rtaga qo`yayotgan yangi talablarga ko`ra muttasil ravishda o`zgarib – yangilanib boraveradi. Faqat biz bu sohadagi dastlabki qadamlarni to`g`ri qo`ya olsak, poydevorni mustahkam qilib barpo etsak, men shunga ishonamanki, bugungi avlod uning samarasidan bahramand bo`lajak, kelgusi avlod esa bizning qilgan ishlarimizni ehtirom va minnatdorlik tuyg`usi bilan eslaydi”⁵ – degan edilar muhtaram prezidentimiz I. Karimov. Bugungikunda har qanday mamlakatning jahon bozoridaraqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, balki birinchi navbatda, zamonaviy muntazam yangilanib turgan texnologiyalarni o`zlashtirishga qodir yuksak bilimli va intizomli ishchi kuchini tayyorlashga bog`liqdir. Ma'lumki, ta'lim respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini, shaxs, jamiyat, davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor soha deb e'tirof etilgan. Ta'lim – tarbiya jarayonini hozirgi zamon talablariga mos holda tashkil etgan o`qituvchi har bir mavzu mazmuniga mos holda o`quvchilarni kasbga yo`llashi va shu kasblarini egallashlari uchun qanday bilimlarga ega bo`lish lozimligini to`g`ri tushuntira borishi kerak. Bunday maqsadlarni ro`yobga chiqarishda tarix darslarini tashkil etishning an'anaviy shakllardan voz kechib uni bozor iqtisodiyotidagi muammoni hal etishga yo`naltirish hozirgi vaqtda tarix o`qitish ta'limi oldidagi dolzarb muammo hisoblanadi. Biz aytgan mana shu yoshlarga biz bog`cha va maktabdanoq e`tabor qaratmog`imiz lozim. Endikda, ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga

⁵Karimov I. A “Yoshlar bugungivaertangihayotimizning hal qiluvchi kuchidir” – T.: “Ma`naviyat”. 2015, 21- bet .

kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar esa, ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Biz oldin texnologiya so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak : "Texnologiya" tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug'atlar talqini bo'yicha (techne san'at, hunar, fan; logos – tushuncha, ta'limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to'plami demakdir. Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san'atini ham o'z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish bilan operatsiyalar ma'lum ketma-ketligini ko'zda tutadi. Texnologiya protsessual mazmunda "qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?" degan savolga javob beradi.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasi o'qitish nazariyasida keyingi paytlarda yanada kengroq tarqaldi. O'qitishning innovatsion texnologiyalariga o'quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanishlar mahoratlari ham kiritilgan. Aynan shu ko'rgazmalar bilan ishlash yoshlarga tarixiy ta'savvur uyg'otmoqchi bo'lgan har bir o'qituvchi uchun maqsadga muvofiq hisonlanadi. Chunki tarixiy voqealarni shunchaki o'qigan yoki eshitgandan ko'ra albatta shu vositalar orqali tarixni obrazli tasavvur qilish, o'quvchilarni fanga qiziqtiradi, hamda uzoq vaqt eslabqolishiga yordam beradi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyalarini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya usulining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda ta'limning rejalashtirilgan maqsadiga erishishni kafolatlaydigan o'zlashtirish jarayoni loyihalashtiriladi. Maqsadni ko'zlash, joriy natijalarni tekshirib borish, o'quv materialini ayrim bo'laklarga ajratish – o'quv jarayonini tashkil etishning bu belgilari - qayta ishlab chiqiladigan ya'ni takrorlanadigan ta'lim sikliga xos xususiyatlardir. Quyidagilarni inobatga olgan holda, 1999 - yilda Respublika ta'lim Markazi qoshida ta'limning

innovatsion texnologiyalari bo'yicha Markaz tashkil etildi. Ta'limning innovatsion texnologiyalari muammolari bo'yicha maqolalar "Xalq ta'limi", "Pedagogik ta'lim", "Ta'lim va tarbiya" jurnallarida, "Ma'rifat", "O'qituvchilar gazetasi" va boshqa ilmiy-pedagogik nashrlarda bosilib chiqarilmoqda. 1994 – yili ta'limning innovatsion texnologiyalari muammolari bo'yicha 1-Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi o'tkazildi, ma'ruzalar va hisobotlar materiallari maxsus to'plamda chop etildi.

"Ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan ta'lim – tarbiyaning natijalari ko'p jihatdan pedagog kadrlarning mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajalariga bog'liqdir. Boshqacha aytganda, ta'lim jarayonini namunalilik tashkil qilish va takomillashtirish uning sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omilidir. Ta'lim jarayonini tizimiga quyidagi elementlar kiradi:

- Ta'lim beruvchi
- Ta'lim oluvchi
- Ta'lim maqsadi
- Kutilayotgan natijalar
- Ta'lim mazmuni
- Ta'lim metodi
- Ta'lim shakli
- Ta'lim vositalari
- Monitoring va baholash

Ta'lim jarayoni elementlaridan birortasi e'tibordan chetda qolsa, yoki noto'g'ri tanlansa tizim yaxshi ishlamaydi va ko'zlangan maqsadga to'la erishilmaydi."⁶

Noannaviy dars jarayoniga qo'yiladigan talablar quyidagilar:

- a) Rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga asosan darsning mazmuni va tizimini aniqlash.
 - o'quvchilar xotirasi va tafakkuriga joylanadigan yuklamaning nisbatini aniqlash;

⁶ G'aniyev A, Nuriddinov B, "Pedagogik texnologiya elementlari", T.: "Niso Poligraf", 2013. 20-bet.

- o`quvchilarning ijro va ijodiy faoliyatining hajmini aniqlash ;
- bilimlarning tayyor holda (o`qituvchi so`zlaridan, darslikdan va hokazo) va mustaqil qidirib o`zlashtirilishini rejalashtirish;
- o`qituvchi va o`quvchilarning muammoviy – evristik ta`lim olishlarini tashkil qilish;
- o`qituvchi tomonidan o`quvchilar faoliyatini doimiy nazorat va tahlil qilish hamda baholash;
- o`quvchilarni rag`batlantirish (bajarilgan ishdan qonoqish uyg`otadigan ijobiy izohlar berish);

b) o`qituvchining dars davomidagi faoliyatiga qo`yiladigan talablar.

- darsga tayyorgarlik va muhimi psixologik maqsadni anglash, unga erishishga ruhan tayyor bo`lish;
- dars boshlanishi va davomidagi ishchan kayfiyat, qo`yilgan maqsadga erishishda qat`iylilik, darsdagi vaziyatga optimistik yondashish, pedagogik topqirlik va hokazo;
- darsga psixologik iqlim (xushchaqchaqlik, samimiy va ishchan muhit) yaratish.

Dars jarayonining samaradorligini oshirish uchun dars ruxan ta`sirchan olib borilib, darsning tezligi shunday tanlanishi kerakki, dars davomida o`qituvchi va o`quvchining harakatlari tugal bo`lishi , o`quvchi va o`qituvchi orasida ochiq muloqot o`rnatilishi, o`quvchilar faoliyatini qo`shib olib borish, o`qitishning turli usullarini qo`llash va har bir o`quvchining faolligini ta`minlash zarur. Har bir jarayonda bo`lgani kabi yangi pedagogik texnologiya asosida dars o`tishning ham o`z yutuq va kamchiliklari mavjud. Ular quyidagilar:

Afzalliklari :

- Mavzu mazmunini yaxshi o`zlashtirishga imkon berishi ;

- O`z vaqtida qayta aloqalarning ta`minlanishi ;
- Tushunchalarni amaliyotda qo`llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- Turli o`qitish usullarini taklif etilishi ; motivatsiyani yuqori darajada bo`lishi ;
- O`tilgan materialni yaxshi eslab qolinishi;
- Muloqotga kirishish mahoratining oshishi;
- O`z – o`zini baholash ko`nikmasining shakllanishi; o`quvchilarning mavzu mazmuniga, o`qitish jarayoniga bo`lgan ijobiy munosabati;
- O`quvchilarning mustaqil fikrlay olishi;
- Tanqidiy va mantiqiy fikrlashning rivojlantirilishi;
- Muammolarni yechish ko`nikmalarini shakllanishi;

Kamchiliklari:

- Ko`p vaqt talab etilishi;
- O`quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining kamligi;
- Juda murakkab mazmundagi material o`rganilayotganda ham o`qituvchi rolining past bo`lishi; o`qituvchining juda yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yechish ko`nikmalariga ega bo`lishining talab etilishi.

II.2. 7- sinf jahon tarixi darsligidagi“Salib yurishlari” mavzusini o`rganishda yangi pedagogik texnologiyalar asosidatayyorlagan dars ishlanmasi

O`quvchilarda ijtimoiy tafakkurning rivojlantirish, o`quv materiallarga tanqidiy yondoshish ko`nikmasini shakllantirish hamda mahsulot, faoliyat turlarini tashkil etish bilan bir qatorda ularni rivojlantirish uchun darsning an'anaviy yoki

noanaviy shakllari, ya'ni noan'aviy darslar bilan birgalikda ishchan o`yin darslari yoki uyg`unlashtirilgan darslardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarini tanlash shakllanayotgan bilim, ko`nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslar shakli va qo`llanayotgan metodlar hamda metodik usullarning xususiyatiga bog`liq. Tarix o`qitishda milliy dasturda ko`rsatilgan talablarini og`ishmay bajarish Prezidentimiz I.A. Karimov ta`kidlaganidek, "Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat yurtimizning fidoyi, o`z yo`lidan, maslagidan, so`zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo`lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham farz, ham qarzdir"⁷. Keyingi yillarda, jahon pedagogik tajribasi shuni ko`rsatmoqdaki, ta`lim jarayoniga insonparvarlik, demokratik va integratsion yondashish pedagogdan birinchi galda har bir shaxs-individida mantiqiy tafakkur qobiliyatini uzluksiz rivojlantirishga erishmog`i kerak. Tarixni bilish jarayoni tarixiy faktlarni o`rganishdan boshlanadi. Tarixiy faktlarni o`ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular hech qachon aynan takrorlanmaydi. Shu bilan birga o`quvchilar tomonidan alohida tarixiy faktlarni bilib olish-tarixini o`zlashtirdi degan tushunchani ifoda etmaydi. Faktlar orasida mantiqiy aloqadorlik bo`lmasa, u holda faktlarning oddiy majmuasi bilimlarni formallashtiradi va tarixiy materiallarni ongli ravishda o`zlashtirilishiga xalaqit beradi. Shunday qilib tarixni o`rganish jarayonida faktlar shunchaki o`rganilmasdan, balki ular orasidagi zarur aloqalarni taqoslash, aniqlash va ma'lum darajada tizimlashtirib o`zlashtirishni ta'min etmog`i kerak.

Tarix darslarini o`qitishning turli usul va metodlari mavjud. Shulardan bir nechtasini ko`rib o`tamiz:

Darsning texnologik xaritasi:

⁷Buyuk kelajakimizni huquqiy kafolati. "Xalqso`zi" gazetasi. 1993 -yil, 8 dekabr.

Mavzu:	Salib yurishlari va uning oqibatlari
Maqsad va vazifalar	<p>Ta'limiy maqsad: o'quvchilar bu darsda Salib yurishlari, uning sabablari va natijalari haqida bilib oladilar.</p> <p>Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilar mustaqillikka erishishimiz ahamiyatini o'rganadilar.</p> <p>Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilar bugungi kunda ham davlatlararo aloqalarnig mustahkamlanishi ahamiyatini bilib oladilar.</p>
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Usul: "Bingo mashqi", "Bilimingni sinab ko'r", "Rasmlar tilga kirganda", "Aqliy hujum", tezkor savol-javoblar, suhbat-ma'ruza, tushunchalar tahlili, test.</p> <p>Shakl: guruhlarda ishlash</p> <p>Vosita: Elektron resurslar, darslik, xarita, mavzuga oid qo'shimcha adabiyotlar, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materilallar.</p> <p>Uslub: Topshiriqlar berib, jamoalar bilan ishlash</p> <p>Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish.</p> <p>Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash</p>
Kutiladigan natija	<p>O'qituvchi: Qisqa vaqt davomida bu darsda, mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malaka hosil qilinadi.</p> <p>Mavzuning dars jarayonida ta'limning ilg'or usullari vositasida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchi faolligini oshiradi. O'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'onadi.</p>
Kelgusi rejalar	<p>O'qituvchi: Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O'quvchi: Mavzu yuzasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon eta oladi. Yangi mavzuga oid qo'shimcha materiallar topishga harakat qiladi.</p>

Mashg'ulot bosqichlari

Bosqichlar	Mazmuni	Vahti
I-bosqich. Tashkiliy qism	Salomlashish. O'quvchilarni darsga tayyorgarligi, sinfda psixologik muhit yaratish.	5 daqiqa

II-bosqich. O'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash	O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob, o'tilgan mavzuni mustahkamlash hamda uyga vazifa bajarilganligini tekshirish	11 daqiqa
III-bosqich Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzuning mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilarda yangi mavzu haqida bilim va ko'nikma, malakalar hosil qilinadi.	13 daqiqa
IV-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash	O'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalari savol-javob orqali aniqlanadi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.	12 daqiqa
V-bosqich. Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa berish	Baholarni e'lon qilish, uyga vazifani tushuntirish. O'quvchilar bilan xayrlashish.	4 daqiqa

D A R S N I N G B O R I S H I:

I. Tashkiliy qism: (5 daqiqa)

a) salomlashish: Assalomu alaykum aziz o'quvchilar

Darsimiz shiori: Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q

b) davomatnijurnalga qayd etish: Who is on duty today? I am on duty today.

Who is abson today? What date is it today?

c) psixologik iqlim yaratish: Mana aziz o'quvchilar 2015-yil bilan xayrlashib, 2016 – yil kirib keldi. Qani aytingchi 2016-yil qanday yil deb nomlandi?

O'quvchilar: 2015 – yil 5 – dekabrda Konstitutsiyamizning 23 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimda Prezidentimiz tomonidan 2016-yil Sog'lom ona va bola yili deb nomlandi.

O'qituvchi: Sizning bunga fikringiz qanday?

O'quvchilar: Vatanimiz kelajagi Sog'lom ona, sog'lom bola

Taraqqiyot poydevori Sog'lom ona, sog'lom bola.

Jannat sizning poyingizda Jonimsadqa yo'lingizga,

Olam nurga to'lsin har vaqt Ona –bola bo'lsin xursand!

Egallanishi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar:

- ✓ O'quvchilar salib yurishlari tarixini o'rganishda voqealar, jarayonlar qaysi bosqichga, davrga oid ekanligini belgilay olishi;
- ✓ xaritadan tarixiy voqealarni, siyosiy jarayonlarni o'rganishda foydalana olishi;
- ✓ O'rganilgan manbalarni tatbiq etib, tarixiy dalillarni muayyan tartibda tahlil qilish va umumlashtirishi, qiyoslashi, baho berishi, tushuntira olishi;
- ✓ Salib yurishlari natijasida kechayotgan jarayonlarga o'zining mustaqil munosabatini bildira olishi va farqlay bilishi lozim.

Asosiy tushunchalar va atamalar:

Indulgensiya, interdikt, Innokentiy III , inkvizitsiya, autodafe, Urban II, Aleksey I, gospitalyerlar, Tevton, Isaak II Angel, Mixail VII Paleolog.

Dars jihozlari:

- Darslik;
- Mavzuga oid zarita;
- Tarqatma materiallar
- Vatman, marker, skouch.

Tashkiliy qism:

- O'qituvchi o'quvchilarni darsning mazmuni va dars davomida egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtiradi.

Darsning borish qismida o'quvchilarni guruhlariga bo'ladi.

O'qituvchi: o'quvchilar o'tgan darslarda biz qanday mavzularni o'tgan edik?

O'quvchilar: Osiyo mamlakatlarining Orta asr shaharlari. Hunarmandchilik va Savdo.

II. O'tilgan mavzularni takrorlash. (11 daqiqa)

- a) Krossvordlar o'quvchilarga tarqatiladi. Bunda har bir guruhga bittadan

tarqatiladi, o'quvchilar unga guruh bilan birgalikda javob berishadi.

b) Savol – javob:

1. Osiyo mamlakatlarida o`rta asr shaharlari vujudga kelish xususiyatlarini so`zlab bering?
2. Xitoy shaharlari haqida nimalarni eslab qoldingiz?
3. Yaponiya va Eron shaharlari haqida ma`lumot bering.
4. Shaharlarda hunarmandchilikning qaysi turlari yuksak rivojlangan?
5. Siz Sharq mamlakatlari bozorlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

III. Yangi mavzu bayoni: (13 daqiqa)

Mavzu rejasi:

1. Salib yurishlarining ishtirokchilari maqsad va vazifasi.
2. Birinchi salib yurishi va uning tashkilotchilari.
3. Diniy ritsarlik ordenlari
4. Salib yurishlarining natijalari, oqibat va yakun

Salib yurishlari deganda Yevropa feodallarining XI asr oxiridan toXIII asr oxirigacha Yaqin Sharqda – Suriyada , Falastinda, Misrda, Bolqon yarim orolida, Kipr orolida va boshqa joylarda olib borgan harbiy ekspeditsiyalari ko`zda tutiladi. G`arbiy Yevropa feodallarining Sharq mamlakatlariga ommaviy yurishlariga sabab: birinchidan, XI asrning ikkinchi yarmida Yaqin SHarqda yuz bergan o`zgarishlar, ikkinchidan , qisman feodal G`arbiy Yevropaning o`zidagi umumiy iqtisodiy taraqqiyot natijasi edi. Savdo sotiqning rivojlanishi bilan shaharlarning shiddatli rivojlanib ketishi oqibatida feodallarning ehtiyojlari ham ko`payib ketdi. Natijada ular kattaroq o`ljalarni qidira boshladilar. Birinchi

salib yurishi: 1095 - yilda Klermondagi cherkov yig'ilishida papa Urban II barcha qirollar, sennorlar, ritsarlar va oddiy xalqni qo'lga qurol olishga va yurish boshlashga chaqirdi. Bu yurish ishtirokchilariga o'zlarining ko'ngillarini ko'tarishni va shu bilan birga quyidagi so'zlarni aytardi: " Kimki bu yerda jabr ko'rgan va qashshoq bo'lsa, u yoqda baxtli va boy bo'ladi" deb ishontirganlar. Ular ishonib orqasidan jangga ketadilar. Urban II yurish qilishga va'da beradi va buni belgisi sifatida kiyimiga xoch rasmini tushiradilar (Shuning uchun bu yurish salb yurishi ishtirokchilari esa salbchilar deb nomlangan). Salib yurishlari uchun aholi ommasini jalb qilish uchun cherkov salibchilarga bir qancha imkoniyatlar beradi. Jumladan, qarzlarni to'lashdan va narsalarini qo'riqlashdan ozod qildi. Ikkinchi va uchinchi salib yurishlari: G'azabga to'lgan musulmon knyazliklari o'zlarining kuchlarini yig'a boshladilar va hujumga o'tishdi. 1144-yilda amir Mosula salibchilardan Edessani tortib oldi. Antioxiyaga tahdid sola boshladi. Papa yangi salib yurishlariga chaqirdi. Katolik cherkovining mashhur arbobi mistik Bernard Klervoskiy fransuz qiroli Lyudovik VII va Germaniya qiroli Konrad III ni 1147-yilda ikkinchi salib yurishlariga jo'nab ketishiga ko'ndirdi. Faqatgina bu safarda salibchilar hech qanday muvaffaqiyatga erisha olmadilar. Nemislar Kichik Osiyoda turk saljuqlari tomonidan yakson qilindi. Nemislarning qolgan qo'shinlariga qo'shilgan fransuz ritsarlari esa Damashqni qamal qilishga harakat qilishdi. Ammo ko'p yo'qotishlar tufayli Yevropaga qaytib ketishdi. To'rtinchi salib yurishlari. Lotin imperiyasi. (1202-1204) . Bu yurish o'ziga xos bo'lib, jannatmakon yerlarni bosib olinishi bilan ajralib turadi. Ushbu yurish ilhomchisi papa Innokentiy III bo'lib u sharq cherkovlarini Rim prestollariga bo'ysundirish va papa hokimiyatini o'rnatishga harakat qildi. To'rtinchi salib yurishi o'ziga xos yurish bo'lib, u boshqa salib yurishlariga nomi jihatdan aloqador bo'lsada, lekin u butun salibchilik harakatini bosqinchilik mohiyatini ro'yi – rost ochib bergan yurish bo'ldi. Bu yurish qatnashchilari hatto Falastingacha ham yetib borolmadilar. Salibchilar bu safar turklarga yoki boshqa musulmonlarga qarshi yurish qilmay, balki xristianlar Vizantiyasiga yurish qildilar. To'rtinchi yurish tarixida ayniqsa venetsiyaliklar katta rol

o`ynadilar, ular yurish yo`nalishini o`zgartirib yubordilar.

Salib yurishlarining ahamiyati shu bo`ldiki: Harbiy muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, har qalay, salib yurishlarining G`arbiy Yevropa taraqqiyoti uchun ahamiyati g`oyat katta bo`ldi. Avvalo, salib yurishlari O`rta dengiz bo`yi mamlakatlari yevropa savdo – sotig`ining rivojlanishiga yordam berdi. Bu salib yurishlari natijasida arab va vizantiyalik savdogarlarning Yaqin Sharqdagi savdo monopoliyasi qattiq zarbaga uchradi va bu yerlarda Italiya, janubiy Fransiya va sharqiy Ispan shaharlari gegemoniyasi o`rnatilgan. Endilikda bu shaharlar Sharq bilan Yevropaning qolgan qismi o`rtasida o`rtasida vositachilik rolini o`ynaydigan bo`ldi. Salib yurishlari vaqtida G`arbiy Yevropaning Sharq bilan savdo – sotiq aloqalari muntazam bir yo`lga tushgan edi. Salib yurishlarining boshlarida Sharqdan keltiriladigan tovarlar miqdori shu yurishlar oxiriga kelib o`n marta ko`paydi. Venetsiya bilan Genuya O`rta dengizning sharqiy yarmigacha, to Shimoliy Qora dengiz sohiligacha kirib bordilar va u yerlarda ko`pdan – ko`p savdo faktoriyalari barpo qildilar. So`ngra, salib yurishlari yevropaliklarning Sharqning sanoat va qishloq xo`jalik texnikasi bilan tanishishlariga imkon berdilar. Yevropaliklar shu davr ichida Sharq to`qimachilik va metallurgiya ishlab chiqarishning, bo`yoqchilik ishining, atir – upa va dorivorlar tayyorlash ishining ko`pgina usullarini o`rgandilar, shuningdek, grechixa, sholi va boshqa qishloq xo`jalik ekinlarini Yevropaga olib ketdilar. Sharq maishiy masalada yevropaliklarga katta ta`sir ko`rsatgan. Ammo salib yurishlarining G`arbiy Yevropaga ko`rsatgan ta`siri haqida gapirilar ekan, arablar Sharqning madaniyati salib yurishlaridan tashqari, boshqacha yo`llar bilan, jumladan, Ispaniya orqali Yevropaga o`tib kirganligini unutmaslik kerak.

“Kim chaqqon ” o`yini topshirig`i: Bunda o`quvchilar berilgan savollarga to`liq javob berib keyingi bosqichga o`tishadi va g`olib guruhlariga mavzu yuzasidan berilgan tarixiy shaxslarning rasmlari tarqatiladi, o`quvchilar bu rasmlarga qarab tavsif berishadi.

1-guruhga : Iqtidorlilar

2-guruhga : Bilimdonlar

3-guruhga : Zukkolar

IV. Mavzuni Mustahkamlash: (12 daqiqa) Savollar:

1. Salib yurishlari uchun Yaqin Sharqda qanday qulay sharoit yuzaga keldi?
2. Rim papasi salib yurishi qatnashchilariga qanday va`dalar berdi?
3. Salibchilar asos slogan davlatlarni xaritadan ko`rsatib bering.
4. Yevropada uchinchi salib yurishlarini tashkil qilinishiga nima turtki berdi?
5. Diniy ritsarlik ordenlari nima maqsadda tuzilgan?
6. Lotin imperiyasi qay tariqa yuzaga keldi?
7. Salib yurishlarining natijalari va ahamiyati haqida so`zlab bering?

V. Darsni yakunlash: (2daqiqa)

1. Darsga xulosa fikr aytiladi .

Shunday qilib so`nggi salib yurishlarining oqibatlari va bu yurishlarning Yevropaga ta`siri qanday bo`ldi?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilarga rag`bat kartochkalari umumlashtirib, baholanadi.

VI. Uyga vazifa: (2 daqiqa)


Navbatdagi mavzuga tayyorlanib kelish. Mavzu yuzasidan 20 ta qo`shimcha ma`lumot yozib kelish.

Tarix darslarida foydalanish qulay va natijasi samarali bo`lgan metodlar. Agar darslarda shunga o`xshash metodlardan foydalanilsa dars jarayoni o`quvchi uchun qiziqarli mashg`ulotga aylanadi va xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

1. Ma`lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash vositalari.

Venn diagrammasi.

O`quvchilarda solishtirish , taqqoslash, tahlil qilish, ko`nikmalarini rivojlantiradi.




Diagrammani tuzib, kesishmaydigan joylar (X) larni ma`lumotlar bilan to`ldiriladi. Diagrammani kesishgan joylarini (XX) va (XXX) doiralar uchun umumiy bo`lgan ma`lumotlar bilan to`ldiradilar. O`quvchilar diagrammalari taqqoslanadi.

2. “Nima uchun” sxemasi.

Bunda muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo`yicha fikrlar zanjiri. Tizimli tahlil qilish va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

Nima uchun ? Nima uchun ? Nima uchun ? Nima uchun ?






Muammoli savol qo`yiladi va “ Nima uchun?” so`rog`i beriladi. So`ngra chizadilar va shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmaguncha davom etadi.


O`quvchilar kichikguruhlariga birlashadilar, sxemalarni taqqoslaydilar, umumiy natijaga keltiradiradilar. Kichik guruhlarining taqdimotlarini o`tkazadilar.

3. Piramida chizmasi va uning asosiy qoidalari.

Ushbu metodda o`quvchilar g`oyalarni quyidan yuqoriga, bosqichma – bosqich taqdim etadilar. Metod o`quvchilar dunyoqarashida tizimli fikrlashni yuzaga keltiradi, tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi. Jarayonda o`quvchilar chizmani tuzish qoidasi bilan tanishib, alohida kichik guruhlarda chizma tuzadilar. O`quvchilar avval asosiy muammoni (g`oya , vazifa) yozadilar. So`ngra kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko`rib chiqish uchun “kichik shoxchalarni” chiqaradilar. Shunga asosan har bir g`oyalar rivojlanishini batafsil kuzatish mumkin. Shu tariqa o`yin davom etadi. Metod so`nggida fikrlar umumiy chizmaga keltirib, ish natijalarini taqdimot qiladilar.

“Piramida” metodi chizmasi.





4. “Insert jadvali”

Bu usul ma`lumotlarni tarkibiy qismlarga bo`lish va ular o`rtasidagi aloqalarni o`rnatish vositasi hisoblanib, o`quvchilarda olingan bilimlarni tizimlashtirish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

√	+	-	?

O`quvchilar mashg`ulotda olgan bilimlarini mustaqil ravishda tizimlashtiradilar va jadval ustunlariga kiritadilar:

“√” – men bilgan ma`lumotlarga mos;

“-” – men bilgan ma`lumotlarga zid;

“+” – men uchun yangi ma`lumot;

“?” – men uchun tushunarsiz. Aniqlik kiritish talab etiladi.

Shuningdek dars jarayonini samarali tashkil qilish uchun “klaster”, “B.B.B” jadvali, “baliq skeleti”, “davra suhbatlari” metodlaridan va turli ko`rinishdagi test usullaridan (ochiq yoki yopiq testlar) foydalanish mumkin. Shunda o`quvchilar

o`z –o`zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo`ladi. Mavzu yaxshi o`zlashtirilib, barcha ta`lim oluvchilar jalb etiladi va muloqotga kirishish ko`nikmasining shakllanishiga olib keladi.

X U L O S A

Umumta`lim maktablarida barcha fanlarning o`qitilishi bugungi kun o`smirlarining ijobiy munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. Hozirda ta`limni texnologiyalashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yuqori

malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda barkamol yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo'lishi, hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan ijodkor pedagog bo'lish talab etiladi. Bunday talablarga javob berish uchun zamonaviy pedagogik, kasbiga oid fundamental bilimlarni mustahkam egallashi va oxborot texnologiyalaridan foydalanishni ham puxta bilishi lozim.

Prezidentimiz I. A. Karimov "Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida 12 foizdan ortadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi. Hech shubhasiz bugun ta'lim – tarbiya va ilm – fan sohasiga sarflanayotgan mablag'lar mamlakatimiz kelajagini egasi bo'lgan yosh avlodni, yuksak intellektual salohiyatli jamiyatni shakllantirish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi" (Karimov I. A. "Yoshlar bugungi va ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchidir", T.: "Ma'naviyat", 2015. 37-bet.), deb bejizga aytmagan. Shu ta'lim bois ta'lim tizimida, jumladan tarix darslarinibugungi kun talabi darajasida o'tish va tarixiy qonuniyatlarni yoshlar ongiga singdirish, qiziqishlarini orttirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Mazkur bitiruv malakaviy ishda o'z ifodasini topgan ijtimoiy gumanitar fanlar, jumladan, "Jahon tarixi" darslari ishlanmalari mohiyatidan anglanadiki, umumiy o'rta ta'lim malkatablari yangi pedagogik texnologiyalar asosida noan'anaviy darslar tashkil etish borasida katta imkoniyatlarga ega.

Ushbu "7-sinfda jahon tarixi darslarida "Salib yurishlari" mavzusini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizni yozib tugatar ekanmiz, shunday xulosaga keldikki, yuqorida ta'kidlanganidek, umumiy o'rta ta'lim maktablari bugungi kunda dars jarayonida noan'anaviy usullardan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana olish uchun Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib, mazkur imkoniyatlarni anglay olish, pedagogik faoliyatga

nisbatan bir oz ijodiy va texnologik yondashish mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga o'quvchilar tomonidan har bir mavzu bo'yicha bilimlarning puxta egallanishi uchun zamin yaratadi. Yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib, noanaviy dars o'tish jarayonida bir xillikdan qochish, O'quv mashg'ulotlarini qiziqarli olib borish, shuningdek o'quvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashiga olib keladi. Agar pedagog darsni doimiy bir xilda tashkil qilsa, o'quvchilarni fanga nisbatan qiziqishini so'nishiga va dars jarayoniga nisbatan loqayd qarashiga olib kelishi mumkin. Endilikda bunday holatning oldini olishning eng samarali yo'li sifatida ta'lim muassasalari faoliyatiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni jadallik bilan olib kirish maqsadga muvofiqdir. Abdulla Avloniy o'zining tadqiqotlarida ilm olish muammosini birinchi o'ringa qo'ygan va shunday degan: - "Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdur.... shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdur"(Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". T.: "O'qituvchi", 1992. 23 bet).

Shuni alohida qayd etib o'tish mumkinki, hozirgi kunning talabi o'quv jarayonini o'quvchilarda faqat takrorlashga doir fikrlashni emas, balki ijodiy tafakkurni ham shakllantiradigan yo'sinda tashkil qilishdir. Ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish har bir pedagogning shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy mahorati hamda ijodkorlik layoqati darajasiga bog'liq.

Bitiruv malakaviy ishning 2 - bobida tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning metod va usullari tanlangan mavzu misolidagi dars ishlanmasi orqali ochib berildi.

Demak, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi - talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa, ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib

chiqarishlariga o`rgatadi. Ananaviy darsning kamchiliklarini yo`qotish uchun boshqa yangi metodlar va pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

BMIdayangi pedagogik texnologiyadan foydalanib o`qitishga asoslangan o`quv mashg`ulotlarini o`tkazish metodikasi ochib berildi. Bunda bir soatli dars ishlanmasi ishlab chiqilib, dars mashg`ulotlarida foydalanish mumkin bo`lgan turli xil metodlar tavsiya etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Rasmiy hujjatlar va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O`zbekiston", 2014. B-40.
2. Karimov I. A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, T.: «O`zbekiston», 1996. B-363.

3. Karimov I. A . Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild, T.: «O`zbekiston», 1996.B-382.
4. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, T.: «O`zbekiston», 1996.B-367.
5. Karimov I. A. Buyondkorlik yo`lidan. 4-jild, T.: «O`zbekiston», 1996. B-351.
6. Karimov I.A Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild, T.:«O`zbekiston», 1997. B-382.
7. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lidan. 6-jild, T.: «O`zbekiston», 1997. B-431.
8. Karimov I. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-jild, T.: «O`zbekiston», 1999.B-413.
9. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild, T.: «O`zbekiston», 2000.B-525.
- 10.Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'lumiz. 9-jild, T.: «O`zbekiston», 2001. B-418.
- 11.Karimov I. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild, T.: «O`zbekiston», 2002.B-371.
- 12.Karimov I. A. Biz tanlagan yo`l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. 11-jild, T.: «O`zbekiston», 2003.B-380.
- 13.Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog`liq. 12-jild, T.: «O`zbekiston», 2004.B-430.
- 14.Karimov I. A. O`zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo`lmaydi. 13-jild, T.: «O`zbekiston», 2005. B-390.
- 15.Karimov I.A Inson, uning huquq va erkinliklari-oliy qadriyat. 14-jild, T.: «O`zbekiston», 2006. B-408.
- 16.Karimov I.A Jamiyatni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15 – jild, T.: “O`zbekiston”, 2007. B-437.

- 17.Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`li. 16 – jild, T.: “O`zbekiston”, 2008.B-421.
- 18.Karimov I.A. Vatanimiz bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta`minlash – bizning oliy maqsadimiz. 17-jild, T.: “O`zbekiston”, 2009. B-390.
- 19.Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar davlatlar darajasiga ko`tarish sari. 18-jild, T.: “O`zbekiston”, 2010.B-451.
- 20.Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-jild, T.: “O`zbekiston”, 2011. B-407.
- 21.Karimov I.A. Bizning yo`limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo`lidir. 20-jild, T.:, “Ozbekiston”, 2012. B-415.
- 22.Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat`iyat bilan davom ettirish yo`lida. 21-jild, T.: “O`zbekiston”, 2013. B-408.
- 23.Karimov I.A. O`zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohotlar yo`lining tasdig`idir. 22-jild, T.: “O`zbekiston”, 2014. B-421.
- 24.Karimov I.A. Erishgan marralar bilan chegaralanmay boshlagan islohotlarimizni yangi bosqichga ko`tarish – bugungi kundagi eng eng dolzarb vazifalarimizdir. 23-jild, T.: “O`zbekiston”, 2015. B-408.
- 25.Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T. “Ma`naviyat”. 2008. B-95.
- 26.Karimov I.A. O`zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohotlar yo`lining tasdig`idir. T.: “O`zbekiston” 2014. 22 jild.B-49.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati

1. Бокман Хортмут. “Немецкий орден. Двенадцать глав из его истории”. М.: “Ладамир”, 2004. С – 280..
- 2.Джеме Б. “Крестовые походы. Священные войны Средневековья”. М.: “Сентрполиграф”, 2011. С-320.
3. Жуан Жан де, В. Жофруа де. “История крестовых походов”, М.: “Центрполиграф”, 2008. С-352.
4. Карпов С.П, Удальцовой З.В. “История средних веков”, М.: Высш. шк, 1990. С - 495.
4. Латвийский Г. “Хроника Ливонии “ - Р: “Александрия”, 2009. С - 384.
5. Mavlyanova R, Rahmankulova N. “Boshlang`ich ta`lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi ”, T.: “Vorish-Nashriyot”, 2013. B-239.
6. Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» / qo`llanma. - Qarshi: Nasaf, 2000.
- 7.Vohidov Sh, Qodirov A. “Sharqning mashhur sulolari”, T.: “Akademnashr”, 2013. B- 462.
8. G`aniyev A, Nuriddinov B. “Pedagogik texnologiya elementlari”, T.: “Niso Poligraf”, 2013. B-94
9. Xalq ta`limi” O`zbekiston Respublikasi Xalq Ta`limi Vazirligining ilmiy-metodik jurnali, T.: 2015 № 3 – son.
10. “Uzluksiz ta`lim” ilmiy – uslubiy jurnal, T.: 2006 y, № 4,1
11. “Xalq so`zi” gazetasi. 1993-yil. 8dekabr
- 12.Sultonov F. E , Salimov T.O` , 7-sinflar uchun darslik, T.: “ Davlat ilmiy nashriyoti” , 2013. B-158

Elektron mabalari

1.www.tdpu.uz

2.www.ziyonet.uz

3.www.edu.uz

4. www.Yandex.ru

5. www.Google.ru

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti 4 –“A” guruh talabasi
Nosirova Guloyim Tohir qizining “7- sinfda jahon tarixi darslarida “Salib
yurishlari” mavzusini o`rganishda yangi pedagogik texnologiyadan
foydalanish” mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi ko'p jihatdan salohiyatli, istedodli va albatta bilimli yoshlar qo'lida ekan, shuni inobatga olgan holda yurtimizda juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va jahon ta'limi talablariga mos keluvchi "Davlat ta'lim standartlari"da davr bilan hamnafas, ya'ni "Intellectual asr"ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko'zda tutilgan. Ayniqsa, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim muassasalaridagi zamonaviy (ilg'or) pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni amaliyotda keng joriy etish, "Fan – ta'lim – amaliyot" integratsiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga alohida e'tibor qaratgan, ya'ni milliy dasturdagi barkamol avlod tarbiyasiga berilgan e'tibor mustaqil Respublikamiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan yosh avlodni tarbiyalashni bosh muammo qilib qo'ydi.

Yoshlar tomonidan ma'naviy g'oyalar asoslarining puxta o'zlashtirilishi keng ko'lamda targ'ibot ishlarini olib borish asosida kechadi. Binobarin, milliy ma'naviyatimizning jamiyatning har bir a'zosi tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ozod va obod, erkin fuqarolik jamiyatining barpo etilishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtda bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar talaygina. Shunday vazifalardan biri nafaqat o'z tariximiz, milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimiz, balki o'zga mamlakatlar xalqlarining tarixini, madaniyatini, ularning urf odatlarini o'rganish ham bugungi kunda mustaqilligimizni mustahkamlashda zarur bo'lgan jihatlardan hisoblanadi. Ayniqsa, jahon mamlakatlari xalqlari orasida XI asrda yuzaga kelgan salib yurishlari natijasida Yevropa mamlakatlarida juda turli sohalari rivoj topgan. Yevropaliklar sharqliklarning turmush tarzi, yangiliklari bilan tanishdilar. G'arbiy Yevropa va Sharqning bir – biriga ta'siri bugungi kunda Jahon tarixining bir bo'lagi bo'lib hisoblanadi. "Jahon tarixi" ni chuqur o'rganish ta'lim sohasi oldidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chunki, jahon xalqlari tarixini puxta bilish yoshlarimizning jahonga chiqishlarida, mamlakatimiz rivojida asosiy vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun bugungi tarix fani zamonaviy o'qituvchisi tarix darslari

jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini puxta bilib olishi zarur. Shu bois talaba Nosirova Guloyim Tohir qizining tanlagan mavzusi o'ta dolzarb deb hisoblayman.

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti 4 – “A” guruh talabasi Nosirova Guloyim Tohir qizining “7 - sinf jahon tarixi darslarida “Salib yurishlari” mavzusini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish” mavzusida yozilgan Bitiruv malakaviy ishi bugungi kunda ta'lim oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, o'ta dolzarb mavzu hisoblanadi. Ushbu Bitiruv malakaviy ishi haqida quyidagilarni aytish mumkin.

Mazkur Bitiruv malakaviy ishida yuqoridagi fikrlarga batafsil to'xtalib o'tilgan. BMI kirish qismi, asosiy qism va xulosa qismidan iborat. Asosiy qism ikki qismdan iborat bo'lib, I bobda XI-XIII asrdagi xristian cherkovi va salib yurishlarining sabablari, uning tashkilotchilari, ahamiyati haqida batafsil metodik adabiyotlarga tayangan holda ilmiy mushohada yuritilgan. II bobda esa talaba bevosita mavzuga metodik jihatdan yondashib, umumta'lim maktablari tarix darslari jarayonida ushbu mavzuni yoritishning noan'anaviy usullaridan foydalanish, uning o'quvchilar bilim darajasini oshirishdagi o'rnini va ahamiyati, turli dars ko'rinishlari hamda ta'lim sohasida hozirgi paytda olib borilayotgan islohotlar, ularning natijalari, yosh avlodni tarbiyalashda tarix fanining ahamiyati haqida fikr yuritgan.

BMI ni yozish davomida talaba Nosirova Guloyim Tohir qizining Prezident asarlaridan, mavzuga doir turli manbalardan, tarixiy va badiiy adabiyotlardan, tarixiy hujjatlardan o'z o'rnida foydalana bilgan. Bundan tashqari talaba Navoiy shahridagi – umumta'lim maktabida pedagogik malakaviy amaliyotini o'tash jarayonida ham ushbu mavzu asosida sinov darsi tashkil qilib, uni muvaffaqiyatli o'tdi. Pedagogik amaliyot davomida orttirgan bilim va tajribalaridan ham BMI ni metodik jihatdan yoritishda bevosita foydalangan. Mazkur ishini yozish davomida doimiy ravishda “Umumiy tarix” kafedrasini bilan hamkorlikda bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu Bitiruv Malakaviy Ishi Xalq Ta'limi Vazirligi BMI Nizomi talablariga to'la javob beradi, unda uchraydigan ba'zi juz'iy

kamchiliklar uning bahosini tushirmaydi. Kamchiliklarni tuzatgan holda BMIning ochiq himoyaga tavsiya etiladi.

Tarix o'qitish metodikasi

kafedrasi dots.

Xayitov Z.

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti 4 –“A” guruh talabasi Nosirova Guloyim Tohir qizining “7- sinfda jahon tarixi darslarida “Salib yurishlari” mavzusini o`rganishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish” mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishi

TAQRIZ.

Bugungi kunda ta'lim tizimida, jumladan umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'limda tarix fanini o'qitishda salmoqli o'zgarishlar olib borilmoqda. Bundan maqsad o'quvchi yoshlarni vatanparvar, mehnatsevar, barkamol shaxs bo'lib yetishishida tarix fanining nechog'li o'rni va ahamiyati yuqoriligini ko'rsatishdan iborat.

Maktabda "Jahon tarixi" va "O'zbekiston tarixi" ni o'qitish milliy ong va tafakkurni o'stirishda, ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetishtirishda katta ahamiyatga egadir. Darhaqiqat, davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi va taraqqiyoti hamda xalqimizning faravon hayot kechirish iko'pjihatdanchet —
el mamlakatlar bilan hamkorlik vazifalarini oqilonahaletilishigabog'liqdir.

Prezident I. ta'kidlaganlaridek "Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai-nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og'u kabi insonni zaharlaydi, uning ongu dunyoqarashini chalg'itadi. Tarix haqiqatini to'laligicha keyingi avlodga yetkazish har bir insonning kelajak oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi." Deganda ana shu holatni nazarda tutadi. Xalqimizning hamda jahon xalqlarining uzoq tarixi o'tmishida ozodlik, istiqlol uchun tinimsiz kurash olib borilganidan guvohlik beradi. "Jahon tarixi" ni o'rganish o'quvchilarga jahon xalqlari tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida millatlararo munosabatlar madaniyatining yuksak darajasi va insonparvarligi doimo ular turmush darajasi hamda jamiyat ma'naviy sofligining eng muhim ko'rsatgichi bo'lib kelganligini chuqur anglab olishlarida yordam beradi va ularni bu an'analarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, talaba Nosirova Guloyimning tanlagan BMI mavzusi o'ta dolzarbligi bilan katta ahamiyatga egadir. Chunki bugungi kunda tarix fanini o'qitadigan zamonaviy o'qituvchi o'quvchilarda tarixiy bilimlarni shakllantirish

jarayonining tarkibiy qismlarini to'la va batafsil bilishi zarur. Talaba ana shu tarkibiy qismlarni birma – bir rejalar asosida bayon etishga harakat qilgan. I bobda XI-XIII asrdagi xristian cherkovi va salib yurishlarining sabablari, uning tashkilotchilari, ahamiyati haqida batafsil metodik adabiyotlarga tayangan holda ilmiy mushohada yuritilgan. II bobda esa talaba bevosita mavzuga metodik jihatdan yondashib, umumta'lim maktablari tarix darslari jarayonida ushbu mavzuni yoritishning noan'anaviy usullaridan foydalanish, yangi pedagogik texnologiya asosida darsni tashkil qilish va uning o'quvchilar bilim darajasini oshirishdagi o'rni va ahamiyatini dars ko'rinishlarida ko'rsatib bergan. Yosh avlodni tarbiyalashda tarix fanining ahamiyati haqida fikr yuritgan.

Mazkur BMI talablarga javob bera olishini hisobga olib, ochiq himoyaga tavsiya etiladi.

Tarix fakulteti dekani v.b:

t.f.n. Qurbonov X.